

Xisoboti

2023-yil 12-18-iyun kunlari Toshkent kimyo-texnologiya institutining Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor X.L.Pulatov, Moliya va iqtisod ishlari bo'yicha prorektor B.B.Qodirov hamda Neftni qayta ishlash kimyoviy texnologiyasi kafedrasi dotsenti O.Yu.Aripdjanovdan tashkil topgan delegatsiya Polshaning Glivise shahrida joylashgan Sileziya texnologiya universiteti bo'lib o'tgan "Erasmus+ Mobility Agreement Staff Mobility For Training" mavzusidagi seminarda faol ishtirok etib, xalqaro toifadagi sertifikatlar bilan taqdirlandilar.

Sileziya texnologiya universiteti "Kimyo" fakulteti rahbari, professor Janusz Wojcik bilan uchrashuvda esa "Maxalliy hom ashyolardan sintetik syeolit SaA (5A) ishlab chiqish" va "Gazni kompleks tayyorlash qurilmalarida ajralib chiqayotgan qatlam suvlarini utilizasiya qilish" loyihalarini hamkorlikda amalga oshirish bo'yicha kelishib olindi.

Shu bilan bir qatorda institut vakillari Toshkent kimyo-texnologiya institutidan Sileziya texnoligiya universitetiga maqsadli doktoranturaga yuborilgan M.Abduraximovning ilmiy izlanishlari hamda ushbu universitetning moddiy-texnik bazasi, o'quv va ilmiy laboratoriya jihozlari, muqobil energiya manbalari joriy etilishi va yaratilgan sharoitlar bilan tanishishdi.

Sileziya texnologiya universitetining bilan uchrashib, qo'shma ilmiy loyihalar, bakavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarida kadrlar tayyorlash masalalarini muhokama qilindi.

Shuningdek, mazkur xorijiy universitetning talabalar turar joylari va kutubxonasida yaratilgan sharoitlar bilan tanishishdi hamda ilg'or tajribalari o'rganildi.

